

TALABALARDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHNI RIVOJLANTIRISHDA ESTETIK TARBIYA, MADANIYAT VA SAN’ATNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI



Jumaniyazov Shixnazar Raximberganovich

Kamoliddin Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Tasviriy san’at fakulteti dekani

dotsent, pedagogika fanlari bo‘yicha

falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20733242>

Аннотация. Ushbu maqolada estetik tarbiya, madaniyat va san’atning tarbiyadagi o‘rni va ahamiyati haqida bo‘lib, bu jarayonda jamiyatdagi voqea-hodisalar bilan chambarchas bog‘liqligi aks ettirilgan. Shu bilan birga shaxsning estetik tarbiyasini san’at vositasida amalga oshirishning afzal tomonlari ifodalangan.

Аннотация. В этой статье обсуждается роль и важность эстетического воспитания, культуры и искусства в образовании, а также то, как этот процесс тесно связан с событиями в обществе. При этом выражаются преимущества эстетического воспитания личности через искусство.

Annotation. This article discusses the role and importance of aesthetic education, culture, and the arts in education, and how this process is closely related to events in society. At the same time, the advantages of the aesthetic education of the individual through art are expressed.

Kalit so‘zlar: milliy o‘zlikni anglash, talaba shaxsi, etnik identiklik, etnopedagogika, ko‘p madaniyatli ta‘lim muhiti, milliy qadriyatlar, tolerantlik, madaniyatlararo muloqot, milliy identifikatsiya.

Ключевые слова: национальное самосознание, личность студента, этническая идентичность, этнопедagogika, поликультурная образовательная среда, национальные ценности, толерантность, межкультурное общение, национальная идентификация.

Keywords: national self-awareness, student personality, ethnic identity, ethnopedagogy, multicultural educational environment, national values, tolerance, intercultural communication, national identification.

Zamonaviy dunyoda talabalarning milliy o‘zligini anglashi muammosi texnokratik kayfiyat, ustanovka va ba‘zan hayot tamoyillarining murakkab va ziddiyatli jihatlar tarzida yoshlarning ommaviy ongida aks etadigan tijoratlashtirish, tadbirkorlik jarayonlari shiddat bilan tus olayotgan davrda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, qator muammolarni yuzaga keltiradi: shaxsning o‘zini qadriyat sifatida, uning ma‘naviy-axloqiy rivojlanishini xavf ostiga qo‘yadi, inson o‘zining barqaror ichki olamini unutishiga olib keladi. Bunday sharoitda milliy o‘zlikni anglash talabaga o‘zining nuqtai nazarlarini anglash va ularni saqlab qolish, milliy qadriyatlarni ichki qabul qilish, o‘z oldiga o‘quv, ijodiy vazifalarni qo‘yish, ijtimoiy-madaniy jihatdan oliy

ta'limdagi o'quv fanlari, shu jumladan tasviriy san'atni o'rganishdan ko'zlangan mohiyatni tushunishga yordam beradi.

Bugungi kunda jamiyatimizda inson faoliyatini boshqarib borishdan ko'ra, ushbu jarayonni insonning uzi tashkil etishi kerakligi bot-bot uqtirilmoqda. Bu jarayonda san'at mohiyatan shaxsning xis-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o'ziga jalb etib kelgan. San'at insonning ehtiroslar va tuyg'ular olamiga singib borib ularni yig'latadi, kuldiradi, o'ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan.

Ma'lumki, inson ongida kechayotgan tuyg'ular, kechinmalar uning tirikligidan dalolat beradi. Ijobiy fazilatlar, badiiy-estetik ideallar inson hayotining mazmuniga ko'rk bag'ishlaydi[2,2].

Tarbiyada ayniqsa, axloqiy va estetik tarbiyada hayotning mazmuni va maqsadi muhim ahamiyat kasb etadi. Gohida maqsad mavhum tushunchaga aylanib shaxsning tabiatiga mutlaqo zid bo'lgan holatlarni keltirib chiqaradi. Pirovardida inson bunday maqsadlarning ta'siridan zarar ko'radi[4,58].

San'at shu ma'noda zamonaviy yoshlarni estetik jihatdan tarbiyalashdagi asosiy vositaki, u estetik tuyg'ularini maqsadli, ijobiy tomonga yo'naltiradi, uning kelajakda buyuk ishlarni amalga oshirishiga ko'mak beradi. Biroq, tuyg'ulari xali shakllanib ulgurmagan, estetik didi risoladagidek darajaga ko'tarilmagan yosh avlod mavjud hayotiy qiyinchilik va tashvishlar qarshisida ojizlik qiladi va natijada yot g'oyalar ta'siriga tushib qoladi. Ana shunday salbiy holatlarning paydo bo'lmasligi uchun ham san'at o'zini tobora ko'proq yoshlarga hamda insonga yaqinlashib borishi maqsadga muvofiqdir.

Chunki estetik did, his-tuyg'u kishilarning go'zal va xunuk, fojiali va kulgili voqealarni idrok etish va baholash qobiliyatini yuzaga chiqaradi va go'zallikka ehtiyojni oshiradi[4,58].

Bu ehtiyoj mehnatda ham, san'atda ham, kishilararo axloqiy munosabatlarda ham go'zallik bo'lishini taqozo etadi. Insonning jamiki faoliyati uning borliqqa estetik munosabati orqali namoyon bo'ladi. Zero, san'at — hayotni go'zallik qonunlari asosida idrok qilishdir. San'at asarlari ta'sirida shodlik va qayg'u kabi kechinmalar paydo buladi.

Bularning barchasi yoshlarning estetik didini yuksaltirishdagi muhim jihatlar hisoblangan tarbiya, madaniyat va san'atning o'rni va ahamiyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, yosh avlodning ma'anaviy kamol topishida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning estetik tafakkuri shakllanib, rivojlanib, takomillashib borgani sari uning ijtimoiy-ruhiy, mafkuraviy-g'oyaviy, siyosiy-ma'naviy intilishlari ham tobora tiniqlashib boradi. Chunki estetik tafakkur insonning maqsad-manfaatlarini go'zal-badiiy vositalarda nazariy asoslab beradi, estetik madaniyat va badiiy amaliyot asoslarini o'rganish, tahlil qilish bilan boyitadi, nazariyalarning falsafiy asoslarini ochib beradi, voqelikni idrok etish jarayonlarini ko'rsatib beradi[6,240].

Shuni ta'kidlash lozimki, umuman talabalarning milliy psixologik xususiyatlariga sezgir bo'lish ularning me'yor, munosabat va xulq-atvorining milliy o'ziga xosliklarini yetarli darajada tushunish imkonini beradi. Shu bilan birga, talabalarning xulq-atvorini idrok etish va oldindan ko'ra bilish qobiliyati milliy fazilatlariga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlikda yaqqol namoyon bo'ladi.

Biroq pedagogik mahorat darajasi yetarli bo'lmagan o'qituvchilar talabalarning milliy psixologik xususiyatlariga befarqligi bilan ajralib turadi. Ular ta'lim jarayoniga milliy psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda e'tibor qaratmaydi va shuning uchun o'quv faoliyati ijtimoiy-psixologik muloqotga aylanadi.

Shu bilan birga shuni nazarda tutish kerakki, ko'p qirralilik ijtimoiy voqelik xususiyati sifatida ta'lim jarayonini tashkil etishda mazkur omilni hisobga olish zarurligini taqozo etadi. Shuning uchun o'qituvchining vazifasi talabalarni o'zaro munosabatlardan boshlanib, hayotiy strategiyalar bilan tugaydigan o'zaro madaniy hamkorlikka tayyorlashdan iborat. Demak, bugungi kunda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishda o'qituvchi shaxsi muhim o'rin tutadi.

Agar o'qituvchi talabalarning madaniy tolerantligini shakllantirishga o'z hissasini qo'shsa, buning o'zini yetarli deb bo'lmaydi. "O'zgalikning samarali resursi"ni joriy etish, shuningdek, uning nisbiy tabiatini muhokama qilish, guruhda mavjud bo'lgan turli madaniyatlar, oilalar ma'naviyati va ijtimoiy muhit bilan o'zaro integratsiyani ta'minlash zarur. Shu bilan birga o'qituvchi va talabani ko'p madaniyatli hayoti, ya'ni kundalik hayotida oliy ta'lim muassasasidan tashqari turli madaniyatlar bilan tanishish imkoniyati masalasi alohida ahamiyatli kasb etadi. So'ngra talaba madaniyatlarni qiyosiy o'rganishning tarixiy, geografik, intellektual asoslarini kengaytirib, madaniy detsentratsiya ko'nikmalarini egallaydi.

Shunday qilib, o'qituvchilarning aralash etnik tarkibga ega bo'lgan guruhda ishlashi uchun o'zaro madaniy kompetensiya zarur. Bundan tashqari, o'qituvchilarning madaniy turfa xillik ta'lim muhitida muvaffaqiyat qozonishining eng muhim sharti talabalarning milliy-madaniy farqlarini bilishdir.

Shuni alohida ta'kidlash muhimki, "madaniy turfa xil ta'lim muhiti" atamasi hududiy-sub'ekt va aniq mazmunga ega faoliyat birligini ifodalovchi murakkab ko'p xususiyatli jarayon sifatida tushuniladi. Madaniy turfa xillikka ega ta'lim muhitining tarkibiy qismlariga qadriyatli, shaxsga yo'naltirilgan, tezkor-faoliyatli va integrativlikni kiritish mumkin. Talabada shaxsiy fazilatlarini etnik kelib chiqish bilan birgalikda rivojlantirish, turli etnik jamoalar o'rtasidagi muloqot va ko'plab madaniyatli ta'lim muhitida samarali millatlararo va o'zaro munosabatlar uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Oliy ta'lim muassasasining madaniy turfa xil ta'lim muhiti har bir talaba shaxsining ma'naviy-qadriyatli sohasini rivojlantirish uchun sharoit yaratishi kerak. Bizning fikrimizcha, shaxsning ma'naviy-qadriyatli sohasi insonning tabiiy qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga hissa qo'shadi hamda shaxsni har tomonlama (vatanparvarlik, bag'rikenglik, xalqlar madaniyatlariga qiziqish, millatlararo muloqot madaniyati va boshqalar.) ijtimoiy imkoniyatlarni faollashtirishga imkon beradi.

Yoshlarning estetik didini yuksaltirishdagi muhim jihatlar hisoblangan tarbiya, madaniyat va san'atning o'rni san'atning o'rni haqida so'z borar ekan San'at uzining tarixiy taraqqiyotida kishilarning orzu-umidlarini namoyon etuvchi, uning sezgilarini, his-tuyg'ularini aks ettiruvchi vosita sifatida katta ahamiyat kasb etib keladi[3]. San'at turlaridagi timsollar ham uz tuzilishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Masalan: musavvirlik, haykaltaroshlik, teatr, badiiy adabiyot, kino san'atida voqea-hodisalar bevosita tasvirlansa, musiqa, raqs, amaliy san'at, me'morchilikda ijodkorning voqea-hodisalar to'g'risidagi g'oyaviy-hissiy holati bilvosita ifodalanadi.

San'atning umumiy qonuniyatlari ham badiiy asarda inson ruhiyati, olam muammolarini hal qilishni talab qiladi, chunki har bir san'at asari odamlarning qalbiga, ongiga ta'sir qilgandagina estetik tuyg'u uyg'otadi, didini tarbiyalaydi. Agar estetika insonni olam go'zalliklari va xunukliklarini, pastkashlik yoki ulug'vorlik hodisalarini nozik his etishga shu bilan birga yana aqliy, intellektual, ruhiy, ma'naviy tarbiya metodlari — uslublarini ham o'rgatadi.

Gap shundaki, hayot bilan bog'liq holda odam, uning o'y-xayollari, fikrlari o'zgarib, yangilanib, boyib, ongi taraqqiy qilib, tuyg'ulari sayqallashib boradi, ayni paytda insonning bilish faoliyati kengayadi, real voqelikning hodisalariga axloqiy-estetik baho berish me'yori ham chuqurlashadi.

Shunga ko‘ra eski tushunchalar mazmunan yangicha ma‘no kasb etadi, yangi tasavvurlar hosil bo‘ladi. Biroq go‘zallik va ezgulik tushunchalari hamma vaqt kishilar e‘tiborini bir xilda band etib keladi. Bu narsa ijtimoiy manfaatlarning ularda ustuvorlik kasb etishi xususiyati bilan belgilanadi.

Shuningdek, shaxsning estetik tarbiyasini san‘at vositasida amalga oshirishning afzal tomonini ikki xususiyat bilan ifodalash mumkin. Birinchidan, san‘at ijtimoiy anglashning boshqa shakllariga qaraganda insonga birmuncha yaqinroq hamda tezroq ta‘sir ko‘rsata olish imkoniga ega. Ikkinchidan, san‘at insonni estetik jihatdan kamolotga etkazish jarayoniga muayyan mafkuraviy mazmun bag‘ishlashi bilan birga insoniy madaniyat va ma‘naviy qadriyatlarini ro‘yobga chiqarishda yaqindan yordam ko‘rsatadi[1,306].

Bu borada albatta san‘at o‘zining estetik bisotini to‘laligicha namoyon qilishi uchun ham tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog‘lanadi.

Shuni aytish lozimki, so‘nggi yillarga kelib san‘at va madaniyatga jamiyat hayotini o‘zgartiruvchi, unga xizmat qiluvchi, fikrlar almashinuvini ta‘minlovchi hamda estetik ahamiyat kasb etuvchi murakkab ijtimoiy jarayon sifatida munosabat bildirilayotganligi diqqatga sazovordir. Ana shunga ko‘ra, insonning bilimlilik tomoni san‘atning ko‘rinishlarini namoyon ettirish holatlarini amalga oshiradi. Mazkur xolatlar natijasida estetik tarbiyaviylik hususiyati o‘z ifodasini topadi.

Negaki, turli–tuman madaniy–ma‘rifiy tadbirlar, rang–barang ko‘rik–tanlovlar, san‘at bayramlari va festivallarini o‘tkazilshi o‘z navbatida kishilarni tayyor ma‘naviy «mahsulotning iste‘molchisi»ga aylanib qolishidan saqlaydi.

Demak, ko‘rinib turibdiki, yoshlarning estetik didini yuksaltirishdagi muhim jihatlar hisoblangan tarbiya, madaniyat va san‘atning o‘rni har jabhada, jamiyatda sodir bo‘ladigan har bir hodisa jarayonida dolzarb ahamitga ega bo‘lgan masala hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda san‘at va madaniyatning tarbiyaviy–g‘oyaviy funksiyasi hayot haqiqatlarini qaytadan tiklash orqali namoyon bo‘ladi. Estetik haqiqatning o‘zi esa hayotni badiiy ijod qonunlari bilan aks ettirishi natijasida vujudga keladi. Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda yoshlar ma‘naviyatining yuksalish asosi tarbiya, san‘at va madaniyat birliklarida estetik tarbiya o‘z kamolot cho‘qqisiga erishib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. E.Umarov «Estetika» Toshkent: “O‘qituvchi” 1995.- 306b
2. N.Raxmatova. “Yoshlarning ma‘naviy kamolotida musiqiy tarbiyaning roli” Xalq ta‘limi. №4 T, 2005 yil 2b
3. “Estetika” Uzdavnashr. Toshkent: 2004 yil.
4. Falsafadan qomusiy lug‘at. Toshkent: 2005.- 586b
5. E. Yusupov, D. Ismoilov. “Odamiylik saboqlari” Toshkent: “O‘qituvchi” 1997. -352b
6. Safo Ochil “Mustaqillik ma‘naviyat va tarbiya asoslari” Toshkent: “O‘qituvchi” 1995.- 240 b.
7. Ҳақимов А. Искусство Узбекистана: история и современность.-Т.2010
8. Ҳақимов А. История Искусств Узбекистана.Т; 2018
9. Jo‘rayev M. O‘zbekistonning yangi tarixi 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.-Т., 2000. 658 b.
10. Karamatov X. O‘zbekiston san‘ati (1991-2001 yillar). Т.2001.
11. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар.-Тошкент: Ўқитувчи, 1997.

12. Oydinov N. Tasviriy san'at tarixi.-T., "Ijod" nashriyot uyi, 2007.
13. Pulatov D. O'zbekiston san'ati. Namangan-2018.
14. Qodirova D. XX asr o'zbek teatri schenografiyasi: tarkib topishi va rivojlanish jarayonlari". monografiyasi. - Toshkent, 2010.
15. Рогова Т. Молодые художники Узбекистана.- 1977.
16. Russian legends. – Groninger museum-nai pulishers, 2007. – 216 c.
17. Rahmatullayeva D. Ibragimov B. Teatr maketi.-T:Noshir,2017.200b.
18. Shihobiddin Muhammad an-Nasafiy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayotining tafsiloti. /Q.Matyoqubov tarjimas/. - T.: O'zbekiston, 2009.-384 b.
19. Badiiy ta'limda innovatsion jarayonlar: rivojlanish strategiyasi, nazariyasi va amaliyoti. Konferensiyasi to'plami.- T.:Impress media.-2021.-540 b.
20. Hakimov A. Palmira uzra musaffo osmon//San'at-Toshkent,2018.-№4.B.4-10.